

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA EMOTSIYA VA UNI IFODALASH
USULLARI

Aslonova Husnida Botirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola koreys va o'zbek tillarida emotsiya va uni ifodalash usullariga bag'ishlanadi. Maqolada koreys va o'zbek tilshunosligida emotsiyaning tutgan o'rni va suhbat jarayonida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi yoritib beriladi. Har ikki tilda emotsiyani ifodalovchi birliklar va usullar bir-biriga qiyoslanib, o'xshash va farqli jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: *emotsiya, undov so'z, intonatsiya, ravish, kesimlik qo'shimchalari.*

ABSTRACT

This article is devoted to emotion and the methods of its expression in the Korean and Uzbek languages. The study elucidates the role of emotion in Korean and Uzbek linguistics, as well as its significant importance in the process of communication. The units and methods used to express emotion in both languages are comparatively examined, and their similarities and differences are analyzed in depth.

KEYWORDS: *emotion, interjection, intonation, adverb, predicative suffixes.*

KIRISH

Emotsiya nafaqat yuz ifodasi, balki, nutq bilan ham uzviy bog'liq. Voqea-hodisaga bo'lgan munosabatimiz, ichki kechinmalarimiz, quvonch, qo'rquv, g'azab, hayratimiz o'z-o'zidan nutqimizda namoyon bo'ladi. Nafaqat tinglovchiga, balki, ko'p hollarda o'zimizga o'zimiz emotsiyamizni gapirib bildirishimiz ham mumkin. Til bejizga ijtimoiy aloqa visotasi emas. Chunki odamzot muloqot qilmasdan yashay olmaydi. Nutq esa inson ichki holatini ifoda etsagina jonli va ta'sirli bo'ladi. Har daqiqa har soniyada nimanidir his qilamiz va kezi kelganda tilda aks ettiramiz. Hissiyot bo'lsagina nimanidir anglaymiz va o'z-o'zidan nutq yuzaga keladi. Aynan emotsiyani lingvistik ifodalash uchun turli til birliklari maydonga chiqadi. O'zbek tilshunosligida nutqning ekspressivligini ifodalovchi vositalar sirasiga birinchi navbatda undov gaplar, ya'ni, his-hayajonni ifodalovchi gaplar turadi. Koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega gapda so'zlovchi tinglovchini hisobga olmagan paytda yoki o'ziga-ozigapirgan holda so'zlovchining emotsiyasini ifodalovchi gap sifatida ham ta'riflanadi. Undov gap so'roq gap, buyruq gap, taklif gapdan farqli ravishda so'zlovchi o'z nutqida tinglovchini e'tiborga olmaydigan holatlarda ham keng qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Koreyalik tilshunos olim Pyong Shi (평시)⁴⁴ o'zining “한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구” (“Koreys-xitoy tillaridagi his-hayajon ifodasini taqqoslash”) nomli ilmiy ishida koreys tilida emotsiyani ifodalashga quyidagicha ta'rif bergan:

“감탄 표현은 다른 문장 유형과는 달리 화자 중심적이고 개인적인 발화여서 창자에게 무엇인가를 전달하려는 의도가 적은 언어 표현이다. 따라서 화자는 상태에 대해 완전한 인식과정을 거쳐 발화로 표출해야 하는 필요성이 적어지고, 지각한 상태가 인식의 세계로 완전히 안착되지 않더라도 순간적으로 자신의 원초적인 발화를 표출해 버리는 것이 가능하다.

(3) 가. 아유, 날씨가 아주 좋군요.

나. 아이고. 마침 잘 왔네.

(4) 야. 정말 좋은 세상이다.

(5) 가. 한국에서는 추석하고 설날이 가장 큰 명절이구나!

나. 이 시간에 길이 얼마나 막히는데 택시를 타나?

(6) 물이야!

위의 예문을 보면 (3)은 한국어 감탄사과 감탄 종결어미가 나타난 전통적인 감탄 표현이다. (4)의 '야' 뒤에 나타난 문장의 종결어미는 평서문 종결어미다. (5)는 부사와 감탄 종결어미가 나타난 감탄문이다. (나)는 의문형 감탄 표현이다. (6)는 문장의 생략형이 나타난 감탄 표현이다⁴⁵. Pyong Shi ushbu fikrlari bilan koreys tilida emotsiyani ifodalashda so'zlovchi muhim bo'lib, tinglovchiga biror-bir ma'lumotni yetkazish maqsadi boshqa gap turlariga nisbatan kam ekanligini ta'kidlagan. Fikrining dalili sifatida undov so'z va emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo'shimchasi ishtirok etgan undov gap, undov so'z va darak kesimlik qo'shimchasi ishtirok etgan gap, olmosh va emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo'shimchasi ishtirok etgan undov gap, so'roq gap va so'z-gapdan foydalanganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, masalan, No De Kyu (노대규)⁴⁶ koreys tilida emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplarga quyidagicha ta'rif bergan:

⁴⁴ 평 시. 한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구. 단군대학교 대학원, 2014.-85 b.

⁴⁵ Tarjima: Boshqa gap turlaridan farqli o'laroq, undov so'zlovchiga yo'naltirilgan va shaxsiy gap bo'lgani uchun u biror narsani to'liq yetkazish niyati kam bo'lgan lingvistik ifodadir. Demak, so'zlovchining vaziyatni to'liq tan olish jarayoni orqali ifodalash zarurati kamayadi, idrok olamida idrok etilayotgan vaziyat to'liq o'mashmagan taqdirda ham uning dastlabki fikrini bir zumda ifodalash mumkin bo'la di. Yuqoridagi misolga qaraganda, (3) an'anaviy undov iborasi bo'lib, unda koreyscha undov so'zlari va undov kesimlik qo'shimchasi bor. (4) da gi "ya" dan keyin kelgan kesimlik qo'shimchasi darak gap oxirida keluvchi kesimlik qo'shimchasi hisoblanadi. (5) olmosh va undov kelimlik qo'shimchasidan iborat undov gap. B) undovning so'roq ifodasi. (6) undov ifodasi bo'lib, unda gapning qisqartmasi paydo bo'la di. Koreys tilidagi emotsional bo'yoqdorlikka ega gaplarni undov so'zlar, undov kesimlik qo'shimchalari, olmoshlar va undov ohangi tashkil etadi. Qarang: 평 시. 한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구. 단군대학교 대학원, 2014.-B.7.

⁴⁶ 노대규. 한국어의 감탄문. 국학자료, 1997.- 306 b.

“감탄문이 말할이가 자기 자신의 정서나, 느낌이나, 또는 태도를 표현하는 데에 사용하는 문장이다. 감탄문에 있어서 감탄이란, 한 마디로 말하면, 말할이의 심리적 행위나 태도를 가리킨다고 할 수 있다. 이를 좀 더 구체적으로 말하면, 감탄이란 말할이가 명제 내용에 대한 사실, 관찰, 경험, 추론, 지각을 하고 정서적으로 표현한다”⁴⁷. No De Kyu undov gap so‘zlovchining hissiyotlari yoki vaziyatga nisbatan bildirayotgan munosabatini ifodalashda ishlatilishi haqida o‘z qarashlarini keltirib o‘tgan. Tilshunosning fikricha, so‘zlovchi faktlar, kuzatishlar, tajribalar, xulosalar va tasavvurlarni emotsiya bilan ifodalaydi.

Koreys tilida emotsiyani ifodalash haqida Li Shi Ye (이시애)⁴⁸ “감탄사를 정의해 보면, 감탄사는 기능면에서 다른 언어와 어떤 관계도 맺지 않고, 형태적으로 불변하는 문법적 성질을 가지며, 화자의 내면 상태나 정신 작용을 표출하거나 화자의 뜻을 전달하는 데에 상황 의존적으로 쓰이는 단어라고 정의할 수 있다”⁴⁹.- degan fikrni ilgari surgan. Li Shi Ye koreys tilida emotsiyani ifodalashda undov so‘zning ahamiyati va uning mukammal tasnifi ustida tadqiqot ishi olib borgan. U undov so‘z gapda mustaqil bo‘lib, boshqa gap birliklari bilan hech qanday aloqaga kirishmasligini yoritib bergan.

Navbatdagi tadqiqotlarga nazar soladigan bo‘lsak, O‘sing Shin (오승신)⁵⁰ koreys tilidagi undov so‘zlarni shunday ta‘riflaydi:

“간투사의 정의는 발화에서 다른 단어와 통사적인 구조를 이루지 않으며, 형태적으로는 활용이나 파생을 하지 않고, 발화 당시의 화자의 내면 상태나 정신 작용을 표출하거나 화자의 뜻을 전달하는 데에 관례적으로 쓰이는 단어이다”⁵¹. O‘sing Shin undov so‘z gapda boshqa so‘zlar bilan sintaktik tuzilma hosil qilmasligi va morfologik vazifa bajarmasligini ta‘kidlab, faqatgina so‘zlovchining gap vaqtidagi ichki holatini aks ettiradigan va yetkazadigan so‘z ekanligini tahlillar asosida isbotlab bergan.

Emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o‘zgarishlari, ayrim tashqi sekretiya bezlarining faoliyati yosh so‘lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o‘zgarishlar, ya‘ni ularning tezligi, kuchi,

⁴⁷ Tarjima: Undov gap so‘zlovchi tomonidan o‘z his-tuyg‘ularini, yoki munosabatlarini ifodalash uchun ishlatadigan jumla sifatida ta‘riflagan. Undov gapida “hayratlanish” so‘zlovchining psixologik xulq-atvori yoki munosabatini bir so‘z bilan ifodalaydi. Xususan, his-hayajon degani so‘zlovchi vaziyatni faktlar, kuzatishlar, tajribalar, xulosalar va tasavvurlarni his-tuyg‘u bilan ifodalaganiga aytiladi. Qarang: 노대규. 한국어의 감탄문. 국학자료원, 1997.-B.32.

⁴⁸ 이시애. 한국어 간투사 연구. 조선대학교, 2011.313 b.

⁴⁹ Tarjima: Undov so‘z funksional tomondan boshqa so‘zlar bilan hech qanday aloqa bog‘lamaydi. U so‘zlovchining ichki holatini yoki aqliy harakatini ifodalash yoki so‘zlovchining niyatini bildirish uchun kontekstga bog‘liq holda qo‘llanadigan, hech qanday mansubliksiz, morfologik o‘zgarmas grammatik xususiyatga ega bo‘lgan so‘z sifatida ta‘riflanishi mumkin. Qarang: 이시애. 한국어 간투사 연구. 조선대학교, 2011.-313 b.

⁵⁰ 오승신. 국어의 간투사 연구. 이화여자대학교, 1995.- 300 b.

⁵¹ Tarjima: Undov so‘z gapda boshqa so‘zlar bilan sintaktik tuzilma hosil qilmaydi, morfologik vazifa bajarmaydi. U so‘zlovchining gap vaqtidagi ichki holatini aks ettiradigan va yetkazadigan so‘zdir. Qarang: 오승신. 국어의 간투사 연구. 이화여자대학교, 1995.- 300 b.

koordinatsiyasi va hokazolar kiradi. Emotsiyalarning eng aniq va yaqqol ko'rinishlaridan biri kulgi bilan yig'ildir.⁵²

A.Rahmonova ta'kidlaganidek, hissiyot shaxs uchun ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin va shu munosabatni ifodalovchi hamda insonning amaliy faoliyati va uning natijasini aks ettiruvchi maxsus psixologik holatdir. Hissiyotlarning lingvistik talqinining murakkabligi uni o'rganishga qiziqishni keltirib chiqaradi. Hissiyotni o'rganish muayyan hissiyotning yuzaga kelish sabablari va shartlarini birlashtiruvchi tushunchalarning murakkab tavsifi bilan amalga oshiriladi. Hissiyot umumbashariy hodisadir. Lekin, his-tuyg'ularning o'zgarishi shiddatligi biroz boshqacha xarakterga ega. Agar bir kishining hissiyoti va uning ifodasi yaqqol va kuchli namoyon bo'lsa, unda boshqa bir kishiniki kamroq namoyon bo'lishi mumkin. Muloqot murakkab mexanizm bo'lib, muloqot jarayonida ko'plab lingvistik va nolingvistik omillardan foydalaniladi. Muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o'zining emotiv (emosional-ekspressiv) funksiyasini bajarishga kirishadi. Emotivlik kontseptsiyasi va ularni tilda taqdim etishga bo'lgan talab, tushunchalarning turli-tuman kategoriyalarini joriy etishga olib keldi. Hissiyotlarni kategoriyalash bilan bir qatorda ularning asosiy jihatlarini aniqlash, shuningdek, tizimli modellashtirish ham yangilandi. So'nggi paytlarda hissiyot lingvokognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik va lingvistik hodisa sifatida o'rganilmoqda. Bunday tadqiqotlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi. Tilda hissiyotlarni namoyon etish maxsus hissiyotga oid so'z va so'z birikmalari yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda his-tuyg'ularni lisoniy aks ettirishning turli jihatlarini ko'rib chiqilmoqda, chunki tilning nafaqat leksik, balki boshqa barcha "qatlamlari" ham hissiyotlarni ifodalashning maxsus vositalari hisoblanadi. Bular: hissiyotlarni namoyon qiluvchi leksik birliklar; stilistik va sintaktik vositalardir. Har qanday til so'zlovchining biror ob'ekt yoki hodisaga hissiy munosabatini, uning ijobiy yoki salbiy bahosini ifodalovchi komponentlarni o'z ichiga olgan so'zlarga bo'ydir. Emotsional komponentning mavjudligi yoki yo'qligi nuqtai nazaridan leksik birliklarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: salbiy, neytral va ijobiy. Aksariyat hollarda leksik birliklarning pragmatik ma'no turlari o'rtasidagi yaqin munosabatni kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, kundalik-so'zlashuv janrida ishlatilishi mumkin ma'lum bir so'z, moslashuvchan bo'lib ijobiy yoki salbiy emotiv ma'no kasb etishi mumkin.⁵³

G. Haqberdiyeva lisoniy hodisalar mazmunidan o'rin oladigan emotiv ma'no inson ruhiy holatini aks ettirishini ta'kidlaydi. Aynan shu ma'no insonga xos tuyg'ularning til tizimiga singishiga uning zahirasida saqlanishiga va zarur bo'lganida nutqiy voqelanishiga imkon beradi. His-tuyg'uning nutqiy voqelanishi emotsional holatlarni namoyon qilish, mazmunni anglashga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, ushbu holat tasvir lanayotgan kontekstda lisoniy

⁵²Bekmirov. T.R. Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. - B.11-12.

⁵³Rahmonova A. Emotsionallikni ifodalashning leksik vositalari. Ilmiy maqola. Jamiyat va innovatsiyalar. Toshkent: 2021. - B.82

birlikning mantiqiy–predmetlik ma'nosida ma'lum siljishlar yuzaga kelib, ushbu ma'no yangicha stilistik bo'yoq kasb etishi kuzatiladi. Insonga xos kechinmalar har bir shaxsning kommunikativ faoliyatiga va shu orqali til hamda madaniyatda o'z aksini topadi. Bu jarayon tabiiydir, chunki his–tuyg'u insonning doimiy hamrohi va usiz muloqot yuritishning imkoni yo'q. Suhbatlarning bir–birini tushunishida uzatilayotgan axborotdan tashqari, ularning emotsiyalari ham muhimdir. Emotsiyaning nutqiy tuzilmalar shakli va mazmunidagi “izi” yaqqol sezilib turadi. Emotiv ma'no sintaktik birliklarga ham yot emasligi barcha tomonidan e'tirof etilgan haqiqatdir. Qayd etish joizki, his-hayajon eng avvalo ruhiy-kognitiv hodisadir va u emotsional tafakkur mahsuli sifatida nutqda faollashadi. Til tizimining barcha sathlarida tafakkurning shu jihatini namoyon qiluvchi birliklar mavjud. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, bizning nutqiy faoliyatni amalga oshirishimiz o'zida emotsionallikni, ya'ni emotiv ma'noni kasb etadi va bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikda faoliyatga kirishadi.⁵⁴

Haqiqatdan ham, emotsiya nafaqat yuz ifodasi, balki, nutq bilan ham uzviy bog'liq. Voqea-hodisaga bo'lgan munosabatimiz, ichki kechinmalarimiz, quvonch, qo'rquv, g'azab, hayratimiz o'z-o'zidan nutqimizda namoyon bo'ladi. Nafaqat tinglovchiga, balki, ko'p hollarda o'zimizga o'zimiz emotsiyamizni gapirib bildirishimiz ham mumkin. Til bejizga ijtimoiy aloqa visotasi emas. Chunki odamzot muloqot qilmasdan yashay olmaydi. Nutq esa inson ichki holatini ifoda etsagina jonli va ta'sirli bo'ladi. Har daqiqa har soniyada nimanidir his qilamiz va kezi kelganda tilda aks ettiramiz. Hissiyot bo'lsagina nimanidir anglaymiz va o'z-o'zidan nutq yuzaga keladi. Aynan emotsiyani lingvistik ifodalash uchun turli til birliklari maydonga chiqadi. O'zbek tilshunosligida nutqning ekspressivligini ifodalovchi vositalar sirasiga birinchi navbatda undov gaplar, ya'ni, his-hayajonni ifodalovchi gaplar turadi.

NATIJALAR

Quyida o'zbek tilida emotsional bo'yoqdorlikni turli usullar bilan ifodalanishiga misollar keltirilgan:

1. - Voy, eshitdingizmi? - Saboxon chinakamiga uyalib ketdi (T.Malik). 2. E-e, rais bova, bu namozxonlarda... e'tiqod nima qiladi? (T.Murod) 3. Azbaroyi achingan imdan “oh!” tortib, uyg'onib ketibmen (P.Qodirov). 4. - Ey, Mikilanjelo turing, professor sizga mana bu narsani berib yubordi (N.Eshonqul). 5. - Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! Kamol toping, do'stim! (A.Qahhor). 1. Odamlar kasal bo'laveribdi, ulardan qanchasi o'laveribdi-yu, sen bu dorilami bosib yotaveribsana-da, insofsiz! (I.Sulton) 2. Hayotning mangu, borliqning boqiyiligiga butkul ishonaman! (O.Matchon) 3. Yo alhazar, jindakkina jussasiga shuncha ayyorlik, shuncha makr-hiyla sig'sa-ya! (A.Qahhor) 4. - Iya, - dedi u, bir ho'kizga, bir odamlarga qarab, - Rosa bopladi-ku! Xo'sh-xo'sh, yana nima deysan? (M.Ismoilijon). 5. - Oh, bevafo dunyo! (P.Qodirov) 6. Otaqo'zi uydan chiqqan Shukurovni ko'rib, xaxolab kuldi (O.Yoqubov). 7. Ovchining ro'parasida turgan kiyik o'zidan boshqani o'ylay oladirmi, begim? (Cho'lpon) 8.

⁵⁴ G.Haqberdiyeva. Emotsional nurq ifoda vositalarining amaliy xususiyatlari. Ilmiy maqola. Ilmiy axborotnoma. Samarqand, 2023.-B.88.

- Hormang, rais!.. - Shukurov tez yurib kelib Otaqo'zi bilan ko'rishdi (O.Yoqubov). 1. Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... (A.Qahhor). 2. Vaholanki, fotihaga borganim uchun sizdan rahmat eshitishim kerakmi? (O'Usmonov) 3. O!.. Hazratim mo'yqalam tekkizishlari bilan suratga yana fayz kirdi (P.Qodirov). 4. G'ishtin yo'laklarda Marat birdan "Tog'a!" deya oldinga intildi (A.Muxtor). 5. Holbuki, Toshkent tarixida misli ko'rilmagan Azizbek kabi vahshiyni faqat shu Musulmonqul qo'lidan oldi (A.Qodiriy) 6. Voy, o'zinning Robi opam-ku! (O'Hoshimov) 7. - E, o'l, zakun-pakuning bilan!.. (O'Hoshimov) 8. - E, voh, rahmatlik kuni bitganini qanday bilgan ekana?! (O'Umarbekov) 1. Ra'noda achchiqlanish namoyishi bor edi (A.Qodiriy). 2. - Buncha qurt-qurt qilib chaynaysiz! - Turp shunaqa bo'ladi-da, jonidan (A.Qahhor). 3. Hamma ayb o'zingizda ekan! (OMJsmenov) 4. - Shunga ko'zim tushmadi-ya! (T. Murod) 5. Singlisi boshqa yoqqa ko'chib ketgan bo'lsa-ya, bular begona kishilar bo'lsa-ya! (S.Ahmad) 6. Qizim kechir, bu adashgan ko'r dadangni kechir! (Oybek) 7. - Men sizni faqat yaxshi paxtakor deb bilar edim, boshqa hunaringiz ham bor ekan! (A.Qahhor) 8. Axir o'zing ham ota bo'lishing kerak-ku! (A.Qahhor)

Koreys tilida emotsiyani ifodalash uchun misollar:

1. 날씨가 좋구나!
2. 살아보면 이런 날도 있구나...
3. 나나는 남자친구가 있구나.
4. 딸이 집 정소를 안 했구나.
5. 우와, 1 등 땀어?!
6. 대박, 한국말 너무 잘하네!
7. 우와, 엄짱 예뻐!
8. 와, 너무 맛있다!

XULOSA

Emotsiya ixtisoslashgan miya tuzilmalarining faol holatidan iborat bo'lib, odam va hayvonlarda kuchaytirish, takrorlash istagini paydo qiladi. Emotsiya xususiyati zarur ehtiyoj va uni qoniqtirish imkoniyati bilan belgilanib, ehtiyojni qoniqtirish ehtimoli kam bo'lganida emotsiya salbiy (qo'rquv, g'azab) shaklda, aksincha uni qondirish ehtimoli kutilganiga nisbatan yuqori bo'lganida esa emotsiyaga ijobiy tus (qoniqish, quvonch) berishi aniqlandi. Emotsiya aynan psixolingvistika sohasida keng o'rganilib, psixologiya va lingvistikada muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistika - nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan hisoblanadi. Inson emotsiyasini tushunish qiyin, ammo yuzaga kelgan reaksiya yordamida kuzatuvlar bilan qisman anglab yetish imkoni mavjud. Inson emotsiyasini

tashqariga chiqarmasdan yashirishi mumkin, biroq yuz ifodasidan u insonning hozirgi vaziyatdagi emotsiyasini taxmin qilsa bo'лади. Emotsiya insonning yuz ifodasi, terga botishi, yuz rangining o'zgarishi, shuningdek, til orqali ifoda etilishi mumkin. Bular orasida til inson emotsiyasini eng aktiv ravishda ifoda etuvchi vosita bo'lib, e'tiborni tortadi. Yuz ifodasining o'zgarishi, tana rangining qizarishi yoki oqarishi singari tashqi o'zgarishlar emotsiya emas, balki boshqa narsa sababli ham yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, ammo to'g'ridan to'g'ri til orqali ifoda etilgan emotsiya aniq va haqqoniy hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekmirov. T.R. Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022.- B.11-12.
2. Rahmonova A. Emotsionallikni ifodalashning leksik vositalari. Ilmiy maqola. Jamiyat va innovatsiyalar. Toshkent: 2021. - B.82
3. G.Haqberdiyeva. Emotsional nurq ifoda vositalarining amaliy xususiyatlari. Ilmiy maqola. Ilmiy axborotnoma. Samarqand, 2023.-B.88.
4. 평 시. 한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구. 단군대학교 대학원, 2014.-85 b.
5. 노대규. 한국어의 감탄문. 국학자료, 1997.- 306 b.
6. 이시애. 한국어 간투사 연구. 조선대학교, 2011.313 b.
7. 오승신. 국어의 간투사 연구. 이화여자대학교, 1995.- 300 b.
8. 오승신. 국어의 간투사 연구. 이화여자대학교, 1995.- 300 b.